

SHAYBONIYLAR DAVRI TARIXIY GEOGRAFIYASIGA OID TOPONIMLARNI INTERFAOL USULLARI O'RGANISH HAQIDA

Furqat Eshboyevich Toshboyev,
tarix fanlari doktori (DSc), professor
Sarvinoz Isomiddinova, Jizzax davlat
pedagogika universiteti magistranti

Annotatsiya:

Maqolada O'zbekiston tarixi fanini o'qitishda Shayboniylar davri tarixiy-geografik toponimlarini o'rganishning ahamiyati yoritilgan. Shayboniylar davri shahar va hududlarini interfaol metodlar orqali o'quvchilarga tushuntirishning nazariy va amaliy jihatlari keltirilgan. Darslarda "Tarixiy xaritadan top!", "Tarixiy sayohat", "Toponimlar shodasi", "Toponim – fakt – voqea" kabi metodlar o'quvchilarning hududiy tafakkurini rivojlantirish, tarixiy voqealarni vizual va tanqidiy tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi.

Kalit so'zlar: Shayboniylar davri, toponimika, interfaol metodlar, tarixiy geografiya, didaktik yondashuvlar, toponim, xarita.

Kirish

XV asrning oxiri va XVI asrning boshlarida Markaziy Osiyo tarixida ko'plab siyosiy o'zgarishlar ro'y berdi. Ayniqsa, Temuriylar davlati zaiflashib, ichki ziddiyatlar kuchaygan bir vaqtda tarix sahnasiga Shayboniylar sulolasi chiqishi hamda mustaqil davlat tashkil etishi Markaziy Osiyo siyosiy xaritasini tubdan o'zgartirib yubordi. Ushbu davrdagi tarixiy jarayonlarni o'rganishda shayboniylar tarixiy geografiyasiga oid atama va nomlarning majmuini o'rganish, ularning o'ziga xos belgilarini aniqlash, Movarounnahrda shayboniylar sulolasi hokimiyatining o'rnatilishidagi siyosiy vaziyatlarda mavjud toponimlar va ularning mohiyatini tahlil qilish, nomlar va

atamalarning vujudga kelishi hamda ularni umumta'lim maktablarida o'rganish muhim hisoblanadi.

Mavjud manbalarga tayangan holda O'zbekiston tarixi darslarida shayboniylar davri tarixi va ayniqsa, tarixiy geografiya masalalarini o'rganish mumkin. Bunda shayboniylar davriga oid joy nomlar ya'ni toponimika muhim o'rin tutib, ular o'quvchilarda hududiy tasavvur, siyosiy-ijtimoiy jarayonlarni tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi.

Ushbu davr tarixini o'rganishda interfaol metodlarning qo'llanishi dars sifatini sezilarli darajada oshiradi. Dars davomida o'qituvchi va o'quvchi hamkorligi kuchayadi, yangi bilimlar olish istagi ortadi hamda yangi g'oyalar tug'iladi. Ingliz olimi Bragg W.L. aytganidek, "Ilmda eng qimmatli narsa-shunchaki faktlarni yig'ish emas, balki ularni yangi yo'llar bilan tushunishdir"¹. Bugungi kunda ta'lim, tayyor bilim-ko'nikma va malakalarni chuqur egallash bilan bir qatorda, o'quvchilarning mustaqil fikr yuritishi, o'z fikrini aniq bayon qila olishi, ijodiy ishlash hamda o'z qobiliyatlarini ko'rsata olishini ham ta'minlashi kerak.

Asosiy qism

Shayboniylar davri tarixini o'rganishda shu davrga oid toponimlar va tarixiy geografiyasiga oid atama va nomlarning majmuini o'rganish muhim hisoblanadi. Bulardan Shayboniylar davrida yaratilgan mahalliy muarrixlarning asarlari jumladan, XVI asrda yaratilgan Muhammad Solihning "Shayboniynoma"², Kamoliddin Banoiyning "Shayboniynoma"³, Muhammad Haydarning "Tarixi Rashidiy"⁴, Fazlulloh ibn Ro'zbehxonning "Mehmonnomayi Buxoro"⁵, Hofiz Tanish Buxoriyning

¹ Bragg W.L. Short history of science. London:British Thompson-Houston Co., 1951. "The Atom" 124-bet

² "Shayboniynoma"ning 1510-1511-yillarda Qosim ismli kotib tomonidan ko'chirilgan eng eski qo'lyozma nusxasi Venada saqlanadi. Nasta'liq xati bilan yozilgan qo'lyozma nusxasi 218 varaqdan iborat bo'lib, unda jang va ziyofat manzaralarini tasvirlovchi 9 ta miniatyura ham keltiriladi. Mana shu qo'lyozma asosida X.Vamberi 1885-yilda Venada dostonning asl matnini va nemis tiliga qilingan tarjimasini nashr ettiradi. 1904-yilda rus turkshunosi P.M.Melioranskiy Peterburgda "Shayboniynoma"ning asl matnini nashr ettirib, Vamberi nashridagi kamchiliklarni tuzatadi va shu nusxadagi ikki miniatyurani ham kiritdi. 1961-yilda O'zbekiston Fanlar akademiyasi nashriyoti tomonidan to'la bosilib chiqdi.

³ Mirzoyev A. M. Kamoliddin Binoiy. M.: Hayka, 1976. 477 c

⁴ Мирзо Мухаммад Хайдар, Тарихи Рашиди (Введение, пер. с перс. А. Урунбаева, Р. П. Джалиловой, Л. М. Епифановой). Ташкент, 1996. 728 c

⁵ Fazlallax ibn Ruzbixan Isfaxany. Mixman-name-yi Buxara" (Zapiski Buxarskogo gostya) Perevod, predisloviya i primechaniya R.P. Djamilovoy. Moskva, Izdatelstvo "Nauka", 1976.

“Sharafnomayi Shohiy”⁶, Abdulloh ibn Muhammad Nasrullohiyning “Zubdat ul-asror”, XVII asrda Abulg’ozi Bahodirxonning “Shajarayi turk”⁷, “Shajarayi tarokima”⁸, Muhammad Yusuf Munshiyning “Tarixi Muqimxoniy” va boshqa asarlarda Muxammt shayboniyxonni harbiy yurishlari, shaharlarning bosib olinishi, davlat boshqaruvi sohasidagi islohatlar va mamlakat jtimoiy-siyosiy hayotiga oid ma’lumotlar yoritilgan.

Shayboniylar davri muhim manbalaridan biri bu Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma”⁹ asari hisoblanadi. Ushbu asar memuar asar bo’lib, unda O’rta Osiyo va unga qo’shni hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy tarixi, etnografiyasi, urf-odatlariga oid ko’plab qimmatli ma’lumotlar bor. E’tiborga molik jihati, asarda joy nomlari tasnifi, jumladan, Andijon, Samarqand, Buxoro, Axsi, Namangan, Toshkent va boshqa shaharlar haqida qiziqarli va muhim ma’lumotlar keltirilgan. Shaharlarda qurilgan qal’a devorlari, darvozalari, boshqaruv shakli, iqtisodiy ahvoli, suvlari, hunarmandchiligi, savdo-sotig’i haqidagi ma’lumotlar ayniqsa qimmatli hisoblandi.

Sulton Muhammadning “Majmua al-g’aroyib” muhim manbalardan bir hisoblanib, ayniqsa, 3, 11, 12, 18-boblari muhimdir. Ushbu asarda Buxoro, Balx, Marv, Chag’oniyon, Termiz, Tamg’ach, Tibet, Turkiston, Bulg’or, Samarqand kabi shaharlar, Jayhun, Murg’ob, Ko’hak, Vaxsh, Chirchiq daryolari, Badaxshon haqida qimmatli ma’lumotlar keltirilgan.

Shayboniylar davlatida Samarqand, Buxoro, Qarshi, Balx, Hirot, Toshkent, Marv, Xorazm kabi toponimlar muhim siyosiy markazlar vazifasini bajargan. Mazkur hududlarning o’zaro joylashuvi, iqtisodiy va harbiy ahamiyati o’quvchilar uchun tarixiy voqealarni yaxlit idrok qilish imkonini yaratadi.

⁶ Хафиз-и Таныш ибн Мир Мухаммад Бухари. Шараф-нама-йи шахи (книга шахской славы). Факсимиле рукописи D88, перевод персидского, введение, примечания и указатели М. А. Салахетдиновой. Ч. 1. М., 1983. 298с.

⁷ Abulg’oziy Bahodirxon. “Shajarayi turk”. Toshkent: Cho’lpon, 1992. 188b.

⁸ Abulg’oziy Bahodirxon. Shajarayi tarokima (nashrga tayyorlovchi Q.Mahmudov) \\\ Toshkent: Cho’lpon, 1995

⁹ Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. Toshkent, 1990. 367b

O'quvchilar uchun toponimlarni o'rganish o'z navbatida, hududlar bilan tarixiy voqelikni bog'lash, makon haqida tafakkurni rivojlantirish, tarixiy voqealarni xaritada qayta tiklash, tahlil qilish, tanqidiy fikrlashni shakllantirishga xizmat qiladi.

Interfaol o'qitishning asosiy tamoyili – o'quvchi faolligini oshirish¹⁰. Interfaol o'qitish metodlari o'quvchilarni o'quv jarayoniga faol jalb etib, ularning mustaqil fikrlash, muammolarni hal qilish va yaratish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Toponimlarni o'qitishda interfaol metodlardan foydalanish axborotni vizual idrok etishni osonlashtiradi, o'quvchilar o'rtasida hamkorlikda ishlash ko'nikmasi shakllanadi, tarixiy voqealar va hududlar to'g'risida bilimlar mustahkamlanadi, eslab qolish jarayoni ijodiy shakl oladi. O'quvchilar dars mavzusini o'z fikrlarini erkin ifoda etishlari, guruhlarda ishlashlari, turli rollarni bajarishlari orqali o'rganishadi.

Misol uchun “Tarixiy xaritadan top!” usuli tarixiy davrlarga oid bo'lgan toponimlarni xaritaga joylashtirish orqali tarixiy hududni anglashga yordam beradi. Bunda o'quvchilar guruhlariga bo'linib, shayboniylar bosib olgan hudud nomlari royhati beriladi va bu nomlarni bo'sh xaritaga joylashtirish kerak bo'ladi. Bu usul natijasida o'quvchilar hududlarning o'zaro joylashuvini visual tarzda tushunadilar. Ko'rsatmali uslub to'g'risida pedagog Y. A. Komenskiy shunday degan: “O'quvchilar sezib idrok etishi mumkin bo'lgan narsalari, albatta, sezgilari vositasi bilan, ya'ni ko'rish mumkin bo'lgan narsalarni ko'z bilan ko'rib, eshitish mumkin bo'lgan narsalarni qulog'i bilan eshitib, hidi bor narsalarni hidlab ko'rib, ta'mini sezish mumkin bo'lgan narsalarni tatib ko'rib, ushlab sezish mumkin bo'lgan narsalarni ushlab bilib olishlari kerak¹¹”

Interfaol usullardan yana biri “Tarixiy sayohat” rolli o'yini bo'lib, bunda o'quvchilar Tarixiy toponimlarni voqealar bilan bog'lashni o'rganishadi. Har bir guruhga Shayboniylar davrida muhim bo'lgan bir hudud “rol” sifatida beriladi. O'quvchilar “o'z shahrining elchilari” sifatida uning ahamiyati, iqtisodi, strategik o'rni haqida ma'lumotlar tayyorlaydi. Shaharlar “o'zaro diplomatik muloqot” qiladi. Bu

¹⁰ Yo'ldoshev J., Hasanov S. *Pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlar*. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018

¹¹ Коменский Я.А. Буюк дидактика.Т.,”Ўқитувчи” 1995, 194- бет

interfaol metodni qo'llash natijasida shaharlar va hududlarning siyosiy ahamiyati yodda qoladi.

“Toponimlar shodasi” ushbu usulda Eski nomlar, hozirgi nomlar, geografik o'rni va tarixiy voqealarni bog'lash maqsad qilib olinadi. O'qituvchi bir toponim aytadi, masalan: Balx. O'quvchi bu hududga bog'liq voqeani aytadi (masalan, Muhammad Shayboniyxonning 1506-yil yurishi¹²). Keyingi o'quvchi o'sha voqeaga bog'liq boshqa toponimni aytadi. Ushbu usul orqali Tarixiy-geografik bog'liqliklar tizimli o'rganiladi.

“Toponim – fakt – voqea” doskasi orqali o'quvchilar Toponim va tarixiy faktlar o'rtasidagi bog'lanishni mustahkamlaydi. O'quvchilar guruhlarda jadval tuzadi: markazga bir toponim yoziladi (masalan, Samarqand¹³). Jadvalga quyidagilar joylashtiriladi:

1. tarixiy voqealar
2. hukmdorlar
3. iqtisodiy-ijtimoiy ma'lumotlar
4. strategik ahamiyat

Har guruh o'z jadvalini himoya qiladi.

Yana bir qiziqarli interfaol metodlardan biri “Tarixiy yurishlar xaritasi”. Bunda o'quvchilar Shayboniylar davridagi yurishlar geografiyasini aniqroq tasavvurga ega bo'lib o'rganishadi. Guruhlar Muhammad Shayboniyxon¹⁴ yoki Ubaydulla Sulton¹⁵ yurishlaridan birini tanlaydi. Harakat yo'nalishini xaritada chizadi. Har nuqtaga toponim va voqea tavsifini ketma-ketlikda aytib o'tadilar. Yakunda o'qituvchi tomonidan umumlashtiriladi va xulosa qilinadi.

Bugun kunda o'quvchilarni dars mashg'ulotlariga jalb qilish, diqqatini jamlash qiyin bo'lib, bunday vaziyatlarda “Aqliy hujum: Toponimni top!” interfaol usuli ayni

¹² Ахмедов Б.А. неизвестная версия «Шейбани-наме» Бенаи // ОНУ. 1965. №2 С.51-55

¹³ Samarqand-1500-yil Shayboniyxon bu shaharni deyarli urushsiz bosib oldi. XVI asr o'rtalarigacha Shayboniylar davlati poytaxti bo'lib turdi.

¹⁴ Muhammad Shayboniyxon (1451-1510)-davlat arbobi, sarkarda, o'zbek shoiri. Movarounnahrda Shayboniylar hukmronligini o'rnatgan.

¹⁵ Ubaydulla Sulton shayboniylar sulolasi vakili, 1533-1540-yillarda Buxoro xonligini boshqargan.

muddao. Bu usul o'quvchilarni toponimlar bo'yicha tezkor xotira va assotsiativ fikrlashni rivojlantirishiga xizmat qiladi:

- 1.O'qituvchi biror tarixiy voqeani qisqa tasvirlaydi. Misol uchun, 1507-yili Muhammad Shayboniyxon bu hududni egallaydi¹⁶.
- 2.O'quvchilar shu voqea qaysi toponimda sodir bo'lganini aytadi.
- 3.Ball tizimi orqali rag'batlantiriladi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, Shayboniylar davri tarixiy-geografik toponimlarini o'rganishda interfaol metodlarning qo'llanilishi o'quvchilarning faolligi, tarixiy tafakkuri va hududiy tasavvurini rivojlantirishga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. An'anaviy yodlash usullari o'quvchilarni darsga qiziqitirmasligi va tarixiy hududlar bilan voqealarni tizimli bog'lash ko'nikmalarini yetarlicha shakllantirmasligi sababli, interfaol metodlar dars sifatini oshirish va o'quvchilarni mustaqil fikrlashga jalb qilishda muhim vosita sifatida namoyon bo'ladi.

“Tarixiy xaritadan top!”, “Tarixiy sayohat”, “Toponimlar shodasi” va “Toponim – fakt – voqea” kabi metodlar o'quvchilarga tarixiy voqealarni hududiy kontekstda tushunish, tanqidiy va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini mustahkamlash, shuningdek, siyosiy, iqtisodiy va strategik ahamiyatni idrok etishga imkon beradi. Shu tariqa, Shayboniylar davri toponimikasini interfaol yondashuvlar orqali o'rganish nafaqat tarixiy-geografik bilimlarni chuqurlashtiradi, balki o'quvchilarda o'z fikrini ifoda etish va hamkorlikda ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradigan samarali pedagogik vosita ekanligi isbotlanadi. Shunday qilib, shayboniylar davridagi tarixiy jarayonlarni tarixiy geografiyasiga oid atama va nomlarning majmuini va ularning o'ziga xos belgilarini aniqlash muhim hisoblanadi. Shayboniylar davri toponimlarini o'rganish jarayonida interfaol metodlardan foydalanish tarixiy manbalarni chuqurroq tahlil qilishga, tarixiy-geografik atamalarning shakllanish omillari va ularning davr siyosiy jarayonlari bilan uzviy bog'liqligini anglashga xizmat qiladi. Bundan tashqari, mazkur yondashuv Shayboniylar davriga oid tarixiy-geografik bilimlarni tizimli ravishda o'zlashtirish, yozma va kartografik manbalar bilan ishlash malakalarini rivojlantirish hamda tarix

¹⁶ Ахмедов Б.А. неизвестная версия «Шейбани-наме» Бенаи // ОНУ. 1965. №2 С.51-55

fanini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni samarali tatbiq etish imkonini beradi. Natijada, tarixiy toponimika faqat faktlar majmui sifatida emas, balki muayyan davrning siyosiy, ijtimoiy va madaniy jarayonlarini aks ettiruvchi muhim ilmiy manba sifatida namoyon bo'ladi.

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, Shayboniylar davri tarixiy-geografik toponimlarini interfaol metodlar asosida o'rganish tarix ta'limining samaradorligini oshirish bilan birga, o'quvchilarda hududiy tafakkur, tarixiy ong va mustaqil tahlil qilish qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Ushbu metodik yondashuvni umumta'lim maktablari va o'rta maxsus ta'lim muassasalarida keng joriy etish tarix fanini o'qitish sifatini yangi bosqichga ko'tarish uchun muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bragg W.L. Short history of science. London:British Thompson-Houston Co., 1951. "The Atom"
2. Narayanan, S. (2017). A study on the relationship between creativity and innovation in teaching and learning methods towards students academic performance at private higher education institution, Malaysia. International Journal of Academic Research in Business and Social Sciences
3. Axmedov B.A. neizvestnaya versiya «Sheybani-name» Benai // ONU. 1965. №2
4. **Yo'ldoshev J., Hasanov S. *Pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlar.* – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018**
5. Toshpo'latova, S. (2024). Tarix fanini o'qitishda samarali metodlar. Modern Science and Research, 3, 774-782.
6. Muxamedovna, G. M. (2023). Maktablarda tarix fanini o'qitish ahamiyati. Nauchniy Fokus), 178-180
7. Komenskiy Y.A. Buyuk didaktika. T., "O'qituvchi" 1995, 194- bet
8. A. Sa'diyev. Maktabda tarix o'qitish metodikasi. Toshkent, O'qituvchi. 1988.

9. Sultonov U. Shayboniylar tarixi va ularning davlat boshqaruvi. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2015
10. Mirza Muhammad Haydar. Tarixi Rashidiy. – Tarjimasi va izohlar bilan. – Toshkent: Fan, 2006.